Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

» Ҳуқуқий тадқиқотлар
» Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
» Тарих саҳифаларидаги изланишлар
» Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
» Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
» Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
» Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
» Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
» Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
» Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
» Физика-математика фанлари ютуқлари
» Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
» Кимё фанлари ютуқлари
» Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
» Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
» Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

№20
30 сентябрь

conferences.uz

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 20-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ

МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 20-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25

MATERIALS OF THE REPUBLICAN 20-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25

ТОШКЕНТ-2020

УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 20-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. X.M.Abdurazzoqova
“O‘ZBEKISTON ICHKI SUVLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” 7
2. Maxmudova Mavluda
“GEOGRAFIYA FANINING O‘QITILISH METODLARI, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA TENDENSIYALARNING O‘SISHI” 9
3. Z. M.Meliboyeva
“GEOGRAFIYA TA’LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH” 10
4. F. M.Meliboyeva
“GEOGRAFIYA DARSLARIDA LOKAL DARAJADAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” 13
5. Sh.K.Xajayeva
“UMUMTA’LIM MAKTABLARI “TABIIY GEOGRAFIYA” KURSLARIDA GIDROLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH” 16
6. Xudoyqulova Nafisa G’aybullayevna
GEOGRAFIYA FANIDA TABIAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARI. 18
7. Ergasheva Dilafruz
O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH 19
8. Xaitova Elnora Ixtiyorovna
GEOGRAFIYA TA’LIMI MAZMUNINI YORITIShDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISh 21
9. Xasanov Zuhiridin
GEOGRAFIK QOBIQNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI 23

ГЕОГРАФИЯ

"O‘ZBEKISTON ICHKI SUVLARI" MAVZUSINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH"

X.M.Abdurazzoqova
Dang‘ara tumani 18-umumta'lim
maktabi geografiya fani o‘qituvchisi
Pochta manzili: abdurazzoqovam@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi ichki suvlarni o‘qitishda yangicha texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: suv havzalari, orol, o‘qitish usullari, detallar

Mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta'lim sohasi ham butunlay, tamomila o‘zgarib,yangilanib bormoqda. Keyingi yillarda ta'lim sohasiga kirib kelgan yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limning noan'anaviy, innovatsion-yangi, qiziqarli, gaol usullari shular jumlasidandir. Pedagogik texnologiyaga turli xil ta'riflar berilgan.

Pedagogik texnologiya- o‘quv jarayonining o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallarni o‘ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V. M. Monaxov.)

Pedagogik texnologiya- texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO).

Hozirda pedagogik texnologiyalarning turlari ko‘p bo‘lib, ular bir-biridan alohidayo‘nalish va maqsadlarga asosiy e'tior qratilgani bilan farqlanadi. Ta'lim olishni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar- o‘yinli, muammoli, masofali o‘qitish, differensialli o‘qitish, yakka holda, guruhli hamda jamoaviy o‘qitish va boshqalarga bo‘linishi mumkin.

Umumta'lim maktablarini 7-sinf Geografiya darslarida "O‘zbekiston ichki suvlari" mavzusini o‘rganishda "Charxpalak" texnologiyalardan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Bu texnologiya hozirgi kunda ko‘p qo‘llanilayotgan texnologiyalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarni biror-bir mavzuni chuqur o‘rganishni talab qilishi bilan birga, ular xotirasida ma'lumotlarni saqlab qolishga ham yordam beradi.

Afzalligi: O‘quvchilar mustaqil va savol topshiriqlarni o‘z guruhlarida bajaradilar, darsga faol qatnashadilar, mustaqil erkin fikrlaydilar. O‘quvchilarni 3 yoki 4 guruhlarga ajratiladi. Har bir guruhga vaqtni taqsimlangan holda mavzuga oid bir necha mavzular beriladi. Har bir guruhga mustaqil ishlash uchun muddat ajratiladi. O‘quvchilar kichik guruhlarda o‘z ustilarida ishlaydilar. So‘ngra savol yoki topshiriqlarni kichik guruhlarda hal qilganlaridan so‘ng ulardan biri guruh fikrini jamlab, umumlashtirib beradi-o‘qituvchi esa, bu jarayonlarni xulosalab, fikrni jamlab, yakunlaydi, har bir guruhni ma'naviy, g‘olib bo‘lgan guruhni imkoniyat darajada rag‘batlantiradi.

Texnologiyadan foydalanishda darsga yangi pedagogik texnologiyaga mo‘ljallab yozilgan ma'ruza matni bilan birga aynan mana shu texnologiya uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallarham kerak bo‘ladi.

"Charxpalak" metodi- muhokama qilinayotgan masalalar haqida mushohada qilish, ularni tushunish, o‘rgatish borasida turli mezonlarni asos qilib olgan holda, ularni muayyan izchillikda tasavvur qilishga zamin yaratadi. Bu metodda o‘quvchilar o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirishlari ham juda qiziqarlidir. Mazkur holatni o‘rganish jarayonida, bu metoddan quyidagi jadval shaklida foydalanish mumkin.

№	O‘zbekistondagi asosiy daryolari	Daryolarni quyilish joyi				
		Orol dengizi	Sirdaryo	Amudaryo	Qizilqum	Arnasoy ko‘li
1	Sirdaryo	+				
2	Amudaryo	+				
3	Zarafshon				+	
4	Norin		+			
5	Chirchiq		+			
6	Sangzor		+			+
7	Ohangaron					
8	Surxondaryo			+		
9	Qoradaryo		+			
10	Sheraboddaryo			+		

Vazifa o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi, ya’ni tarqatma materialda O‘zbekistondagi asosiy daryolar va ularning suv quyish mansablari alohida ustunlarda beriladi. O‘zbekistondagi daryolarning suv quyish mansablari qaysi ustunga to‘g‘ri kelishini to‘ldirish o‘quvchilarga vazifa qilib topshiriladi. Ular bu vazifadan kelib chiqqan holda to‘g‘ri javobni aniqlaydilar va kerakli ustunga + (plyus) belgisini qo‘yib boradilar. Texnologiya ketma-ketligi bir necha bosqishda bajariladi:

1- bosqich: bu texnologiyadan foydalanilganda auditoriyadagi o‘quvchilar soniga qarab guruhlarga bo‘linadi.

2- bosqich: o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘tilgan mavzu bo‘yicha yoki yangi mavzu bo‘yicha tayyorlangan vazifalar guruhlarga tarqatiladi.

3- bosqich: o‘quvchilar belgilangan vaqt davomida guruh bilan ishlashadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtirib, ular vazifani qay darajada bajarayotganlarini nazorat qilib turadi.

4-bosqich: guruhlar bajargan vazifalarni bir-birlari bilan almashtiradi, ya’ni 1-guruh, 2-guruhga, 3-guruhga va hokazo. Bu jarayon guruhlar soniga qarab bir necha bor bajariladi, toki 1-guruh vazifasi o‘ziga yetib kelgunga qadar.

5-bosqich: o‘qituvchi javoblarni o‘qiydi,o‘quvchilar o‘zlari bajargan vazifani tekshiradi, baholaydi, tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir pedagogik texnologiyani mohiyatiga qarab, tegishli bob va mavzularni o‘rganishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Gidrologiya fanining geografiya fani bilan bog‘liqligi” T, 2007

"GEOGRAFIYA FANINING O'QITILISH METODLARI, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA TENDENSIYALARNING O'SISHI"

Maxmudova Mavluda
Jizzax shahar, 14-maktab geografiya fani o'qituvchisi
Pochta manzili: mavludamaxmudova@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya fanining o'quvchilarga nechog'lik kerakligi hamda o'qitish metodlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: iqlim, dolzar global muammolar, orol, azon qatlamining yemirilishi.

O'zbekiston Respublikasi Halq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Maktab geografiyasin qayta kurishning ilmiy-uslubiy kontseptsiya»siga muvofiq umumiy ta'limning ikkinchi bosqichida tabiat va geografiyani o'qitishda o'zgarishlar kirgizilgan.

O'quv fanining kurslarga bo'linishi va mazmuni xiddiy o'zgargan. Bu o'zgarishlar umumiy o'rta ta'limning to'qqiz yillik qilib belgilanishiga va nihoyat – ijtimoiy va siyosiy jabhalarda ruy bergan tub o'zgarishlarga monanddir. O'quv fani mazmunining takomillashuvini taqozo etgan yuqoridagi omillarning mohiyati nimalardan iborat? O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limning to'qqiz yillik etib belgilanishi hamda ta'lim-tarbiyaning siyosatdan holi qilinishi bilan umumiy ta'limni, jumladan maktab geografiyasining tarkibini va mazmunini ham butunlay qayta kurish dolzarb masalaga aylandi.

Ayni vaqtda geografiya fanining ayrim qoida va tushunchalari talqinida ruy bergan o'zgarishlar ham maktab geografiyasini qayta mushohada qilishni talab eta boshladi. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan bo'lgan «hududiy mehnat taqsimoti»ning qo'llanilishi va uning tamoyillariga oyd mezon o'zgarmoqda.

Hududiy mehnat taqsimoti mohiyatida ruy bergan o'zgarishlarga bog'liq unga aloqador bo'lgan kontsentratsiya, iqtisoslashuv tarmoqlararo majmuaning Tushincha – borliqni inson ongiga shakllantirishning bir turi. Tushunchalar abstrakt tafakkur natijasida hosil bo'ladi. Tushuncha bilishning asosiy birligi hisoblanib umumiy va aniq tushunchalarga bo'linadi. Umumiy tushunchalar deganda alohida hodisalar haqida emas, balkim umumiy bitta tur nomga ega bo'lgan voqea va hodisalar tushiniladi. Masalan, daryolar, tog'lar, xalq xo'jaligi tarmoqlari, iqtisodiy rayon. Umumiy tushunchalarning mohiyatini aniqlashda, barcha voqea va hodisalar uchun umumiy bo'lgan hosiyatlar (belgilar, sifatlar) ochib beriladi.

Masalan, geosinklinallarni er qobig'ining harakatchan qismlariga aytiladi. Umumiy

tushunchalar geografiya kurslarining ilmiy asoslarini tashkil etadi. Maktab dasturida kuyidagi umumiy tushunchalarni ko'rishimiz mumkin, "Quyosh radiatsiyasi", "Havo massasi", "Mehnat resurslari", " Urbanizatsiya". Aniq tushunchalar o'zining nomiga ega bo'lgan aniq geografik xudud, Volga daryosi, Qora dengiz, v.x.k Aniq tushunchalar ifodasi, geografik nomlarni ochib beradi. Aniq tushanchalar Afrika, Frantsiya, Pamir.

Tushunchalar asosiy va yordamchi tushunchalarga bo'linadi. Masalan, tog' jinsi asosiy tushuncha magmatik tog' jins yordamchi tushuncha.Sabab va oqibatlar – geografik vokea va hodisalar orasidagi sabab va oqibatlarni shakllantiradi. Tabiiy geografiya kurslarida kuyidagi sabab va oqibatlar ochib beriladi. Rel'ef, iqlim, quruqlik suvlari, dunyo okeani, tuproqlar. Rel'ef erning ichki va tashqi kuchlar oqibati deb qaraladi. Tabiiy geografik komplekslar sabab va oqibatlarni ochib berish uchun ajratiladi.

Iqtisodiy geografiya kurslarida sabab va oqibatlarning kuyidagi turlarini ochib beradi, jamoatlik iqtisodiy tizim va xo'jalik o'rtasidagi, davlatning tarixiy rivojlanishi, va xo'jalikning hozirgi xosiyatlari o'rtasidagi, davlatning rivojlanishi bilan uning iqtisodiy geografik joylashuvi orasidagi, tabiiy sharoit va xo'jalikning tuzilishi orasidagi bog'liqliklaridir.

Qonuniyatlar – geografik borliq (ob'ekt), hodisa va jarayonlar orasidagi eng zarur va nisbatan mahkam bog'liqlik borliqni shakllantiradi. Tabiiy geografiyada kuyidagi qonuniyatlar ochib beriladi. Bir butunlik, moddalarning aylanma harakati, ritmlik, zonalik, hamda ba'zi tabiat murakkabliligini foyda bo'lishi qonuniyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston geografiya jamiyati" 41-jild T, 2013

“GEOGRAFIYA TA’LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH”

Z. M.Meliboyeva
Qo‘qon shahar 26-umumta’lim
maktabi geografiya fani o‘qituvchisi
Pochta manzili: meliboyevaz@gmail.com

Annotatsiya: maktab o‘quvchilariga geografiya fanini o‘qitishda maktab darsida tashqari vazifalar berish.

Kalit so‘zlar: geografiy, didaktik mashqlar, fandan tashqari vazifalar.

Darsdan tashqari ishlar**,** uy ishlari (vazifalar)ga qaraganda murakkabroqdir. Ularni amalga oshirish uchun tegishli o‘simliklar, maxsus asboblar va boshqa jihozlar talab qilinadi. Darsdan tashqari ishlarga: tirik tabiat burchagidagi, o‘quv-tajriba maydonchasidagi va tabiatda yozgi topshiriqlar bo‘yicha bajariladigan ishlar kiradi. Bu ishlar o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg‘otish, shuningdek, maktab dasturini kengay-tirish hamda to‘ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan chetdagi ko‘pchilik faoliyat shakli bo‘lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Geografiya xonalarida va tirik tabiat burchagida o‘tkaziladigan ishlar uchun o‘quvchilarga topshiriqlar darslarda kursning barcha mavzulari uchun o‘quv yili davomida berib boriladi. Geografiya fanlarining o‘qitilishida o‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning majburiy bo‘lmagan ko‘ngilli shakllari: indiviudal ishlar, sinfdan tashqari, “Yosh tabiatshunoslar” to‘aragining ishi, ommaviy kechalar, ijtimoiy foydali ishlar keng qo‘llaniladi. Sinfdan tashqari ish o‘quv materiali asosida va unga bog‘liq holda uyushtiriladi. Biroq uning mazmuni darsni takrorlamaydi. Dastur doirasi bilan cheklanmaydi, ammo uni to‘ldiradi va tabiat haqidagi fanning qiziqarli hamda kerakli tomonlarini ochib beradi.

Geografiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish, tabiatni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, o‘quvchilar faolligi hamda mustaqilligini rivojlantirish, vaqtni rejalashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari geografiya ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki bu ishlar o‘quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy tag‘sir ko‘rsatadi. Ularning moddiy dunyoga qarashi va mehnat madaniyati shakllanadi, bilishga qiziqishi, mustaqil kuzatish ko‘nikmalari rivojlanadi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni teranlashtiradi. Geografiya bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan sinfdan tashqari ishlar o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

O‘quvchilarning kuzatishlari va o‘qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo‘jaligi bo‘yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, uni inson manfaati uchun o‘zgartirish to‘g‘risidagi ta’limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. O‘quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o‘rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko‘maklashadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog‘liq bo‘lishi, biri ikkinchisini to‘ldirishi kerak. o‘simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa, geografiya bilan qiziqqan o‘quvchilar yosh tabiatshunoslar to‘aragi mashg‘ulotlariga qatnashishlari mumkin. o‘quvchilarda tabiiy obektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga mehrni payqagan o‘qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg‘ulotlar topishi, tabiat to‘g‘risidagi fanni chuqurroq o‘rganish istagini rivojlantirishi zarur.

Geografiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o‘iganish va muhofaza qilish, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xilma-xil mashg‘ulotlar kiradi. Bu mashg‘ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar eg‘tiborini tabiat, shuningdek, maktab jonli burchagi va o‘quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq, ko‘cha va maktabni ko‘kalamzorlashtirish, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo‘yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblarni o‘qish bilan biiga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o‘ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1-guruhga ko‘plab o‘quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar;

2- guruhga cheklangan o‘quvchilar doirasida olib boriladigan to‘arak ishlari;

3- guruhga tabiatni o‘iganishga qiziqqan ayrim o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Geografiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo‘lib o‘tkaziladigan shakllaridan biri to‘arak ishidir. U muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni chuqurroq o‘rganish imkoniyatini beradi. To‘arakka ag‘zo bo‘lish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o‘z zimmasiga aniq reja bo‘yicha ishlash va boshlagan ishini oxiriga yetkazish majburiyatini oladi. Rejaga o‘quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlar kiritilishi lozim. o‘qituvchining asosiy vazifasi - amaliy natijalar beravchi faol ishlarni tag‘minlashdir. Ishda har xil: o‘qituvchi va o‘quv-chilarning tabiiy yoki tasviriy ko‘igazmali qurollarni namoyish qilish bilan og‘zaki bayon qilishi, amaliy o‘quv va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati va boshqa metodlar to‘g‘ri uyg‘unlashtirilishi lozim.

To‘garakni muvaffaqiyatli ishlashida mashg‘ulotlar o‘tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. Birinchi mashg‘ulot oldidan uni o‘tkazish vaqti to‘g‘risida eslatish, to‘arak vazifalari bilan o‘quvchilarni tanishtiruvchi, kirish suhbatining mazmunini barcha tafsilotlari bo‘yicha o‘ylab chiqish zarur. To‘arakning ish rejasini tuza turib, mo‘ljallangan mavzuni o‘quvchilar bilan muhokama qilish va ularning taklif-istaklarini hisobga olish kerak. To‘arakning birinchi mashg‘ulotida uning faollari yoki kengashi (sardori, uning muovuni, muharririyat ag‘zolari) saylanadi va nomi (“Hamma narsani bilishni istayman”, “Biz va tabiat”, “Yosh tabiatshunoslar”, “Tabiatni sevuvchilar” va boshqalar) tasdiqlanadi. eng yaxshi nom uchun tanlov eg‘lon qilinishi mumkin. Shuningdek, to‘arakda qatnashuvchilarning xulq-atvori qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. qoidalar quyidagicha: 1) ishda faol qatnashish; 2) barcha topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish; 3) har bir ishni nihoyasiga yetkazish; 4) kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish; 5) o‘rtoqlariga yordam berish; 6) mash-g‘ulotlarga muntazam qatnashish. yoki uning muovini maxsus jurnalda olib boradi. Mashg‘ulotlar ikki haftada bir marta muayyan kun va soatlarda o‘tkaziladi.

Birinchi mashg‘ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik kerak. o‘quvchilarga kichikroq, lekin qiziqarli kirish materiali berish kerak, toki ular to‘arak ishiga qiziqsinlar va nima bilan shug‘ullanishlari haqida dastlabki (taxminiy) tasavvurlarga ega bo‘lsinlar. Ishni diafilm, diapozitiv ko‘rish, geografiya mazmunidagi ilmiy-ommabop adabiyot o‘qish bilan boshlash mag‘qul.

Mashg‘ulotlarda xilma-xil: o‘qituvchi va o‘quvchilar hikoyasi, suhbat, amaliy ishlar bajarish (kolleksiya va gerbariylar yasash, tajribalarga tayyorlanish va o‘tkazish), tabiatda o‘tkazilgan kuzatishlarni muhokama qilish uslublaridan foydalaniladi.

Geografiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari klub ishlaridan keng foyda-lanadilar, ularni boshqa ish shakllaridan farqi shundaki, klubda bolalar erkinroq faoliyat yuritishlari mumkin, o‘zaro munosabatlar uchun erkin vaziyat yaratiladi, o‘yinlarga ehtiyoj va qiziqish qanoatlantiriladi. Klub majlislarida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan: Bu nima? Nima uchun bu yuz beradi? qaerda buni ko‘rish, bilish, o‘qish mumkin? kabi savollarga mustaqil javoblar olishga o‘rganadilar. Klub majlisining zarur elementlari o‘quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning albatta ko‘rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o‘quvchilarni qiziqtirish uchun sinfga “So‘rang, javob beramiz” yoki “Nimachining savollari” yozilgan quti qo‘yiladi, unga savollar yozilgan varaqchalar solinadi.

Klubning navbatdagi majlisidan bir hafta oldin o‘qituvchi savollarni mazmuniga qarab gurahlashtiradi, klub ag‘zolari orasida taqsimlaydi va javob topishni taklif qiladi. Javoblar tayyorlash uchun o‘qituvchi klub ag‘zolariga mag‘lumotnoma va ilmiy-ommabop adabiyotga murojaat qilishni, agar kerak bo‘lsa, tabiatda yoki jonli tabiat burchagida kuzatishlar, oddiy tajribalar o‘tkazishni tavsiya qiladi. Savollarga javob berishni jism va hodisalar (o‘simliklar gerbariysi, hayvonlar chuchelasi yoki ularning rasmlari, diapozitiv, diafilm, tajriba va hokazolar) ni ko‘rsatish bilan olib boigan mag‘qul.

Klub yig‘ilishi o‘tkazilayotgan sinfda burchak yoki axborot stendi (taxtasi)ni jihozlash kerak, ularda bo‘lajak yig‘ilishlar, ularning mavzusi, adabiyotni tavsiya qiluvchi ro‘yxat to‘g‘risida bildirish joylashtiriladi. Bu yerda kitoblar, ko‘rgazmali qurollar,tabiiy materiallardan tayyorlangan ko‘rgazmalar ham qo‘yiladi.

Ommaviy ishlar. Geografiya bo‘yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar ekskursiyalar, tanlovlar, diapozitiv va kino-filmlarni ko‘rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil tadbirlar (qushlar kuni, gullar, daraxtlar o‘tqazish, Hosil bayramlari va boshqalar)ni ham o‘z ichiga oladLUlardan maqsad

- sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko‘proq o‘quvchilarni jalb etish, ularda qatnashishga ishtiyoq va xohishni uyg‘otish, bolalar faolligini yo‘lga qo‘yish, ularni ijtimoiy-foydali ishlarga yo‘naltirish, bolalarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Tadbirga tayyorlanish tabiat to‘g‘risidagi o‘z bilimlarini kuza-tishlar yoki kitoblarni o‘qish yordamida to‘ldirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. CHunonchi. bahor (ochiq kunlar, o‘simlik va hayvonlarning uyg‘onishi, qushlarning uchib kelishi) to‘g‘risi-dagi bayon (axborot) ni tayyorlash kuzatishlar va tabiatdagi bahorgi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi adabiyot o‘qish bilan bog‘liqdir. Tadbir rejada belgilangan vaqtda barcha o‘quvchilarning faol ishtirokida o‘tkazilishi kerak (Ota-onalar ham taklif qilinishi mumkin). Ular ishtirokchilar xotirasida kechinmalarni saqlovchi va tabiatni o‘rganish hamda muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni chuqurlashtirish uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiluvchi hissiy ko‘tarinkilikni vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston geografiya jamiyati” 41-jild T, 2013

"GEOGRAFIYA DARSLARIDA LOKAL DARAJADAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH"

F. M.Meliboyeva
Qo'qon shahar 42-umumta'lim
maktabi geografiya fani o'qituvchisi
Pochta manzili: meliboyevam@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya darslarida local darajadagi texnologiyalardan foydalanish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: geografik shartli belgilar, sanoat va qishloq xo'jaligi, bilim hajmi

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining qiyofasini tubfan o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi ko'pgina kasblar faqat ma'lumotli kishilarnigina emas, yuksak rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega kasb egalarini jalb qilishni talab qilmoqda.

O'quv jarayoniga tatbiq etilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Davlat ta'lim standarti" da o'quvchilarning bilishlari uchun zarur bo'lgan majburiy bilimlar hajmi aniq ko'rsatilgan. Ularni o'quvchilarga yetkazish, o'quvchilarni faqat puxta bilim olibgina qolmay, balki mustaqil ravishda o'qiy olish va ijodiy izlanishga yo'naltirish, ularda o'z fikriy qobiliyatini rivojlantira borish ko'nikmalarini orttira olish uchun o'qituvchilar pedagogikaning turli shakl va usullaridan foydalana olishlari zarur bo'ladi.

Geografiya fanini o'rganishda o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish uchun o'quvchilarni otgan mavzulari yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalrin aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtitilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardn foydlanish ijobiy natija beradi. Umumta'lim maktablarini VI-sinf "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitilishida lokal darajadagi pedagogik texnologiyalarning quyidagi turlaridan foydalanishimiz mumkin:

- Venn diagrammasi;
- Atamalar zanjiri;
- Aqliy hujum;
- Insert;
- Klaster;
- Keys-stadi;

Ta'lim-tarbiya jarayonida lokal darajada qo'llaniladigan teznologiyalardan biri- Venn diagrammasi bo'lib, uni ishlab chiqqan ingliz olimi Jon Venn nomi bilan yuritiladi.

Venn diagrammasi o'rganilayotgan mavzudan o'rin olgan fakt, tushuncha va jarayonlarni tahlil qilish, sintezlash va taqqoslashni talab etadi. Ushbu diagrammadan materiklarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlari, geografik o'rni va rel'yefidagi asosiy farqlari yoki o'xshashliklarini taqqoslashda foydalaniladigan Venn diagrammasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi.



Geografiya kursida faktik mateiallarni organishda Insert usulidan ham foydalanishimiz mumkin. Insert-lokal darajadagi pedagogik usullar guruhiga mansub bo'lib,o'quvchilar

tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni aniqlashga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarda Insert usulidan foydalanish tartibi va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari, to‘ldirilishi kerak bo‘lgan maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar maxsus jadvalni o‘rganib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizmi

(V) – Bilaman
(+) – Ma’qullayman
(-) – O‘rganish lozim
(?) – Tushunmadim

Tushunchalar	V	+	-	?
O‘zbekistonning ichki suvlari				
Daryolar				
Ko‘llar				
Suv omborlari				
Kanallar				
Muzliklar				
Yer osti suvlari				

Ushbu Insert usulidan Umumta’lim maktablarini VI-sinf “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursida hamma materik yoki okeanlarni o‘rganilayotganda foydalanishimiz mumkin. Chunki har bitta materik o‘qitilayotganda maxsus jadvalda keltirilgan tushunchalar yoritiladi.

Klaster – cluster-ingliz tilida shajara degan ma’noni bildiradi. Ushbu lokal texnologiya o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan va o‘zlashtiriladigan g‘oya ,nazariya, qonuniyat hamda tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishni anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga imkon yaratib tahliliy-tanqidiy fikr yuritsh ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Klasterdan foydalaniladigan darslarda o‘quvchilar teng sonli kichik guruhlarga ajratilib ,ularga o‘quv topshirig‘ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirlgandan so‘ng, ular belgilangan vaqt ichida fikrlarini jamlab ,o‘zlari tuzgan Klasterni hamoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratilib, eng yaxshi va asosli tuzilgan Klaster aniqlanadi,g‘oliblar rag‘batlantiriladi.

“Atamalar zanjiri” bu atamalar va ularning ta’riflari bo‘lib, ulardan o‘qituvchi o‘tgan mavzuni yakunlash, yangi o‘rganilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning birqismida foydalanganligi sababli, ularni lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq.

“Atamalar zanjiri”dan o‘tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda o‘quvchilarning kichik guruh a’zolaridan og‘zaki holda atamalatni ketma-ket avvalgilarini takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko‘ra o‘zaro bog‘liq holda yangi atama qo‘shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o‘yin yakunida guruh a’zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga ta’rif berish va ularni izohlash talab etiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, ta’lim tizimi sifatini yanada oshirish, o‘quvchilarning bilim saviyasini yuksaltirish, o‘qitish jarayonida yangi pedagogik tehnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Xatto olis qishloqlarimizda ham lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ildam yo‘lga qo‘yilmoqda.Yurtimizda ta’limga berilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik dunyoning

rivojlangan davlatlari e'tiborini o'ziga jalb etmoqda . Dunyoning ilg'or mamlakatlari bizning ta'lim tizimimizdagi islohotlarni o'zlarining o'qitish jarayonlarida keng tadbiq etishmoqda. Lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kun o'quvchisining bilim saviyasiga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bunda esa o'qituvchining pedagogik mahorati katta rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'qituvchining eng yaxshi "yordamchisi " lokal darajadagi pedagogik texnologidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston geografiya jamiyati" 41-jild T, 2013

"UMUMTA'LIM MAKTABLARI "TABIIY GEOGRAFIYA" KURSLARIDA GIDROLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH"

Sh.K.Xajayeva
Toshkent shaxar Chilonzor tumani
232-sonli umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi
Pochta manzili: kxajayeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktablarda tabiiy geografiya kurslarini o'qitishda gidrologik atamalardan foydalanish, nima sababdan kerakligi, o'quvchilarga qanchalik samamrali ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: geografiya, gidrologik atamalar, shartli belgilar, sanoat va qishloq xo'jaligi.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining qiyofasini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi ko'pgina kasblar faqat ma'lumotli kishilarnigina emas, yuksak rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega kasb egalarini jalb qilishni talab qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'limi standartlari o'quvchilar umum ta'lim tayyorgarligiga, saviyisiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi hamda ta'lim mazmunini, shakllari, vositalari, usullarni, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa meyoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hizmat qiladi. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim fanlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturda o'z aksini topgan. Yuqorida qabul qilingan qarorning ilovasida geografiya fanidan "Yer sharining qobiqlari tabiatini bilish, har bir qobiq tabiatini tushuntira olish", "har bir qitalar va okeanlar tabiatini bilish", ko'zda tutilgan bo'lib, suv va suvga oid tushunchalar "gidrosferani" bilish va idriok qilish nazarda tutilgan.

Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan "Yer sharining qobiqlarini bilish, har bir qobiq tabiatini tushuntira olish", "okean tabiatini bilish", "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'grisida" 1998 yil 13 maydagi 203 sonli qorori talablariga ham mos tushishini eslash o'rinlidir.

Dastur va qo'llanmalarning hajmi chegaralanganligi va gidrosferaga oid bilim va ko'nikmalarni berishga oid mahsus qo'llanmalarni deyarli yo'qligi dars jarayoni va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda katta qiyinchiliklarni olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan umumiy o'rta ta'lim maktablarining V va VI sinflarda ajratilgan darsliklarni gidrasferaga oid mavzularni o'qitishning o'ziga hos hususiyattlari, ularni tashkil qilishni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tashkil qilishga oid tavsiyalarni yaratish zaruriyati kelib chiqadi. Gidralogiyaning maqsad, vazifalari, asosiy elementlari haqida malumotlarni o'rganish maqsadga muofuqdir.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida "suv bor yerda hayot bor" degan gap bor. Xaqiqatdan inson hayotini va uning amaliy faoliyatini bugun yer sharida, Markaziy Osiyoda suvsiz tassavur etib bo'lmaydi. Suv insonga juda katta zarar ham keltirishi mumkin. Suv bilan bog'liq hodisalarning inson amaliy hayotidagi ijobiy ahamyati va zararini aniqlash juda murakkab masala bo'lib, u bilan gidrologiya fani shug'llanadi. "Gidrologiya" so'zi grekcha bo'lib,"hyudro"-suv, "logos"-fan, yani suv haqidagi fan degan manoni anglatadi.

Lekin gidrologiya bu nomga to'liq munosib holda suvni bir fizik modda sifatida o'rganmaydi. U yer yuzasida suvni taqsimlanishi, suv xavzalarini, ularni joylashishi, bu xavzadagi suvning yuzaga kelishi va dinamikasi, umuman olganda suv xavzalaridagi hamma jarayonlarni o'rganuvchi fandir.

Suvning deyarli 94 %ga yaqini okean va dengizlarda to'plangan. Materiklardagi suvlar esa asosan shu okean va dengizlardan bug'lanish natijasida yog'adigan yog'inlar hisobiga hosil bo'ladi. Okenlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning quruqlikdagi suv jarayonidan keskin farq qilishi, ularni tadqiq qilishdagi usullarni boshqachaligi gidrologiya fanini o'z navbatida ikki katta fan tarmog'iga – okeanalogiya va quruqlik gidrologiyasiga bo'linishiga olib keladi.

Gidrologiya fani yer yuzasidagi (daryo, ko'l, dengiz va okean) hamda yer osti suvlarini o'rganadi. Gidrologiya fanining maqsad va vazifalari kishilik jamiyatini rivojlaninshiga bog'lia

holda takomillashib boradi.

Gidrologiya bilan shug‘llanuvchi kishilar dastlab kuzatish va ko‘rgan narsalarini yozish bilan shug‘llanib keldi. Olimlar tadqiqot ishlarini davom ettirib turli asboblardan foydalana boshladilar. Endilikda bu asboblardan keng qo‘llanilmoqda. Daryo suvining oqim tezligini aniqlash uchun vertushka, suvda loyqa miqdorini aniqlash uchun batometr va boshqa asboblardan foydalanilmoqda. Hozir gidrologiyada nazariy tadqiqot ishlari keng avj olib, ularni ahamyati tobora ortib bormoqda. Buning uchun gidrologik obyektlar ustida olib borilayotgan kundalik kuzatishlar asosiy material sifatida hizmat qilmoqda.

Gidrologiya fani daryolar va boshqa suv manbalari rejimining yil davomida va yildan yilga o‘zgarib turishini oldindan aytib beradi. Bu narsa xalq xo‘jaligini rejalashtirish, suv boyligidan foydalanish, suv transport ishlarini rivojlantirish, energiya ishlab chiqarish va uzatish, ekin maydonlarini suv bilan taminlash, yog‘och oqizish va boshqalarda juda katta ahamiyatga egadi. Daryo toshqinlari yoki suvning kam bo‘lishi haqida tegishli tashkilotlar ogohlantiriladi, ular keltiriladigan zararni bartaraf qilish choralari q’ollaniladi. Bu tadbir esa daryo, ko‘l va boshqa suv obektlari rejimiga ta’sir qiladigan omillarni chuqur o‘rganish asosida amalga oshiriladi.

Daryo, ko‘l, yer osti suvlarining rejimining ozgarishi tabiiy geografik omillarga bog‘liqdir. Bular orasida meteorologik omillar asosiy o‘rinni egallaydi. Meteorologik omillar tasirini yaxshiroq anglash uchun daryolarning to‘yinish tiplarini ko‘rib chiqamiz. Daryolar toyinishiga ko‘ra muzdan, qordan, yomg‘ir suvlaridan, yer osti suvlaridan va aralash manbalardan to‘yinadi.

Muzliklardan to‘yinadigan daryolarning suv rejimi asosan daryo suv yig‘ish xavzsida maydonning absalyut balandligiga, yogin miqdoriga, tog‘ tizmalarining yon bag‘irlari oreantatsiyasi, relyef xususiyatlari va o‘sha joyning temperaturasi hamda quyosh radiatsiyasiga bog‘liq. Bu daryolar baland tog‘larda uchraydi. Markaziy Osiyo va Kazkazdagi tog‘lardir. Markaziy Osiyo daryolarining to‘yinishida muzliklarning ulushi 15 % dan oshmaydi.

Qorlardan toyinadigan daryolarning suv zahirasi shu yerga yoqqan qor miqdoriga bog‘liq. Daryolarda suv miqdorining ko‘payib ketishi yoki ozayishi shu joyga yoqqan qorning erish darajasiga bog‘liq. Bu daryolarning suvi bahor oylarida, havo temperaturasi 0^0 yuqori ko‘tarila boshlagan davirdan ko‘paya boshlaydi. Sharqiy Yevropa va Sibr o‘lkalaridagi daryolarni misol qilib olish mumkin.

Yomg‘irdan to‘yinadigan daryolar suv rejimining yil davomida o‘zgarib turishi shu daryo xavzasiga yog‘ayotgan yomg‘ir miqdoriga bog‘liq. Ana shu sababdan bu daryolarning ko‘p yillik suv sathining o‘zgarib turishikoeffitsenti ancha kattadir. Yil davomidagi suv rejimida daryo suvining maksimal sarfi yomg‘ir eng ko‘p yoqqan oylarga to‘g‘ri keladi. Markaziy Osiyo sharoitida yoz oylarida qurib qoladi. Karpat, Kavkaz, Qirm tog‘lari va Primore o‘lkasidagi daryolarning to‘yinishida yomg‘ir suvuning ulishi katta.

Yer osti suvlaridan to‘yinadigan daryolar ham o‘ziga hos rejimga egadir. Yer osti suvlari asosan atmosfera yog‘inlarining hosilasidir. Yer osti suvlarining zaxirasi atmosfera yog‘inlarining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Yer osti suvlari yer osti jinslari orasidagi g‘ovak jinslardan o‘tib daryolarni to‘yintiradi. Yer osti suvlaridan to‘yinadigan daryolarning yillik suv rejimi yil davomida juda kam o‘zgaradi. Yer ostidan to‘yinadigan daryolar ko‘pchilikni tashkil etadi. Tabiatda faqat bitta toyinish manbaiga ega daryoni uchratish qiyin. To‘yinish manbalaridan bittasi daryoning to‘yinishida asosiy ro‘l o‘ynaydi. Masalan Markaziy Osiyo daryolarining to‘yinishida qor va muzlarning ulishi katta.

Yuqorida daryolar rejimiga nimalar tasir qilishni umumiy tarzda ko‘rib o‘tiladi. Gidrologlar oldida turgan vazifa daryolarning o‘ziga xos hususiyatlarini, ularning suv rejimiga tasir qiluvchi omillarning sabablarini o‘rganishdan iborat. Bu sohada olimlarning samarali ishlari uchun g‘oyat katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston geografiya jamiyati” 41-jild T, 2013

GEOGRAFIYA FANIDA TABIAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARI.

Xudoyqulova Nafisa G'aybullayevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
42-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 90 646 86 07

Annotatsiya. Yer shari va uning alohida qismlarining ta'sirini shunga mos holda tabiiy geografiya o'rganadi. Biroq, bu juftlikning ikkinchi tomonini, ya'ni jamiyatni yoki insonni faqat iqtisodiy geografiyaga taalluqliligi noto g'ridir, chunki "inspn va tabiat" yoki "tabiat va jamiyat" bo'lishi mumkin, ammo "tabiat va iqtisod" uncha qovushmaydi. Shuning uchun iqtisodiy geografiya garchi ijtimoiy geografiyaning asosiy qismi bo'lsa-da, murakkab jamiyat hayotini o'rganuvchi fan albatta keng qamrovli ijtimoiy geografiya hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Tabiat, mintaqalar, determinizm, tabiiy, tarixiy, siyosiy, texnologik, F.Ratsel, R.Chellenю

Tabiat inson, jamiyat rivoji uchun eng avvalo sharoit yaratadi va bu sharoit qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Binobarin, mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini faqat tabiiy omiillar bilan belgilash nodurustdir. Bunday holda biz geografik determinizmning noto'g'ri talqiniga o'tib qolamiz. Ma'lumki, jamiyat rivojlanishi turli xil tabiiy, tarixiy, siyosiy, texnologik va boshqa omillarga bog'liq. Shularga mos holda geografik, biologik, tarixiy, texnologik determinizm haqida so'z yuritish mumkin. ("dete"-belgilash, aniqlash ma'nosini bildiradi). Deterministik dunyoqarash hodisa va voqeliklar ostida yotgan sabab-oqibat aloqadorligini, dialektik qonuniyatlarni anglab olishga yordam beradi. Biroq uni haddan tashqari bo'rttirib yuborish ham xatodir. Sababi-jamiyat rivojlanishi faqat u yoki bu omilgagina emas, balki ko'pgina sharoit va omillar majmuiga bog'liq. Ayni vaqtda, determinizmni tamomila inkor etish ham nodurustdir, chunki yuqoridagi omilarning ta'siri u yoki bu darajada albatta mavjud. O'tmishda, masalan XVII-XIX asrlarda geografik determinizmga juda katta e'tibor berilgan, hatto kishilarning xarakteri, yurish-turishi, davlat tuzumi ham faqat mamlakatning tabiiy sharoiti (ayniqsa iqlimi va yer usti tuzilishi), geografik joylanishi bilan tushuntirilgan. Ma'lumki, tog' va tekislik, sovuq yoki issiq, cho'l yoki vohada yashovchilar bir-birlari bilan xulq-atvor, bo'y-bastlari, yuz-ko'rinishi va yurish-turishlarida farq qiladilar. Bu haqda vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy ham yozgan edi: "Odamlar tuzilishining, surat, tabiat va ahloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerningturlichaligidan hamdir". Bu albatta haq gap. Lekin tabiiy geografik omillar orqali mamlakat va rayonlaming umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, ularning siyosiy tuzumini uzil-kesil izohlash ham to'g'ri emas.

Geografik determinizmni jamiyat rivojlanishida birdan-bir omil sifatida qarash ayniqsa Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniyada keng tarqalgan edi. Germaniya va Shvetsiyada hududga siyosiy mazmun berish asosida, geografik determinizmning siyosat bilan qo'shilish natijasida o'ta reaksion geografik siyosat, geosiyosat vujudga kelgan edi. Uning asoschilari nemis F.Ratsel va shved R.Chellen bo'lgan (XIX asr). Aynan ana shunday mafkura, jahonni qayta taqsimlash haqidagi geosiyosiy qarashlar jahon urushlarini, xalqaro mojarolarni keltirib chiqargan. Fransiyada vujudga kelgan possibilizm (Vidal de La Blash) tabiatga bo'lgan munosabatni biroz "yumshatilgan" yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu g'oya asosida tabiiy sharoitning undan foydalanish uchun imkoniyat yaratishi, unga moslashgan va muvofiq holda xo'jalik yuritish yotadi. Demak, bunday dunyoqarash haqiqatga birmuncha yaqindir, ammo bu yerda ham tabiat ustunligi va ayni vaqtda inson kuch-u-qudratining tabiat oldida zaifligi sezilib turibdi. , Umuman olganda, tabiat va jamiyat ikkiligida u yoki bunistga katta urg'u berish ham nodurustdir; ular tarozining ikki pallasidek doimiy muvozanatda bo'lmog'i lozim. Tabiat va jamiyat munosabati o'rtasida inson, uning salomatligi, boshqacha qilib aytganda, demotsentrik prinsip turishi kerak. Zero, hozirgi davrda eng muhim muammo hatto aholining o'sib borishi ham emas, balki kishilarning hayoti, barkamol yashashi uchun sog'lom atrof-muhitni, qulay ekologik vaziyatni saqlab qolishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abirqulov Q. lqtisodiy geografiya.-T., 2004
2. Soliyev A., Mahamadliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T., 1996.
3. www.ziyouz.com

O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Dilafruz
Marhamat tumani 18-umumta’lim maktabi
Geografiya fani o‘qituvchisi
Tel : +998999032781

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda ekologik bilimlarni rivojlantirish ularga ekologik ta‘lim va tarbiyani berishda dars jarayonida qo‘llaniladigan turli metodlar jumladan “Qarorlar shajarasi” va “INSERT” metodlari haqida so‘z boradi. Ushbu metodlarni dars jarayonida qo‘llanilsa o‘quvchilarning ekologik savodxonligi va mustaqil fikrlashi hamda uni bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlanishi e‘tiborga olingan.

Kalit so‘z: ekologik bilim, an’anaviy dars, interfaol metod, metod.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda , unga turli –tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi mutassil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha , rolli o‘yinlar, kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bunday interfaol metodlarni biz maktab darsliklarida berilgan atrofmuhit muhofazasi va ekologiyaga bog‘liq mavzular misolida ko‘rib chiqamiz. So‘nggi yillarda ekologik muammolar ko‘lami kengayib u yoki bu mintaqadagi ekologik xavf xatarlar tobora globallashib borayotganligi butun dunyoda aholining ekologik bilimi va savodxonligini oshirishni davr talabiga aylantirdi. Mamlakatimizda ham aholining bilimi va savodxonligini oshirish borasida kehg qamrovli ishlar qilinmoqda . Jumladan, biz buni farzandlarimizga bog‘cha dan berilayotgan turli ekologik tarbiyani yoki maktablarda boshlang‘ich sinflarda “Atrofimizdagi olam “ yoki “Tabiatshunoslik “ fanlarida , yuqori sinflarda esa geografiya, biologiya , kimyo va fizika fanlari tizimida berib bormoqdamiz Darsligimizda “Tabiatnimuhofaza qilishning geografik asoslari “, “Atrof- muhit manitoringi va geografik- ekologik ekspertiza asoslari”,“ Insoniyatningglobal muammolari”, va “O‘zbekistonning geoekologik muammolari’ kabi mavzularda o‘quvchilarning ekologik savodxonligi oshirib borilmoqda . O‘quvchilarga ta‘lim berish jarayonida yuqorida sanab o‘tgan bir necha metodlardan tashqari yana boshqa metodlarni tatbiq etmoqchimiz . “Qarorlar shajarasi “ metodi. “Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma‘lum masalalarni har tomonlama puxta taxlil qilish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul va to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora taxlil etish va uni m ukammal tushnishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta‘lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabil qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Dars jarayonida o‘quvchilar MUAMMO 1-G‘OYA +2-G‘OYA +3-G‘OYA QAROR tizimida faoliyar olib borishadi . “Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi: 1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara , tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafardan iborat guruhlarga ajratadi . Muammoni hal etilishi u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi. 3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a‘zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik

va nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantnin afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilayotgan variantar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a‘zolari bir to‘xtamga kelib oladilar. 4. Munozara uchun ajratilgan vaqt tugagach, har bir guruh a‘zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur holatda o‘qituvchi rahbarligida barcha o‘quvchilar bildirgan xulosalarni bir biri bilan qiyoslaydilar . Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug‘ilgudek bo‘lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi. “Qarorlar shajarasi “ metodining o‘ziga xosligi shundaku, bu bevosita ma‘lum loyiha asosida qo‘llaniladi. Biz bu metodni “O‘zbekistonning geoekologik muammolari” mavzusida qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mavzuda berilgan Orol va Orolbo‘yi muammosi O‘zbekistonning balki qo‘shni respublikalar hududida joylashgan regional geoekologik muammo hisoblanadi. Shu sababli mazkur muammoni bartaraf etishda barcha bilan hamkorlikda ishlash lozim hisoblanadi. Vazifani bajarish davomida bu muammo to‘g‘risida har bir guruhda va har bir o‘quvchida bir necha variantlar bo‘lishi tabiiy hol . Ushbu muammoning yuzaga kelish sabablari, keng miqyosda tarqalishi,oqibatlari va hozirgi kundagi yechimlari borasida fikrlar yuritiladi. Darhaqiqat, ekologik xavfni sezish va unga bog‘liq muammolarni hal etish doimiy ravishda davlat ekologik siyosatining markaziy masalasi sifatida qaraladi. Ekologik madaniyatni yuksaltirish esa, ekologik muammolarni hal etishda muhim zamin yaratuvchi faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarning ekologik ta‘lim va tarbiya masalasiga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu borada biz pedagoglar farzandlarimizga yoshligidanoq ekologik ta‘lim – tarbiyani ongiga singdirib borishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni.
2. “Xalq ta‘limi” jurnali 3. Maktab darsliklari 4. “Interfaol metodlar” qo‘llanmasi.

GEOGRAFIYA TA'LIMI MAZMUNINI YORITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xaitova Elnora Ixtiyorovna
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani
20-maktab geografiya va iqtisod fani o'qituvchisi
+998994762891

Annotatsiya: Maqolada geografiya fanini o'qitishda yangicha usullardan foydalanish, fan tizimiga zamonaviy yondashish va innovatsiyalar kiritish, dars jarayonida turli pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning dasrga qiziqishlarini ortishini, diqqatini jamlashini, mustaqil fikr yurita olishini haqida qisqacha mazmuni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot kommunikatsiya, animatsiyalar, internet ma'lumot.

Geografiya ta'limi mazmunini asosan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va tabiiy geografiya tashkil etadi. Shuning uchun ham geografiya fanlar tizimida (ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy geografiya va tabiiy geografiya) voqea va hodisalarni yoritish, ularni o'quvchilar ongiga talab darajasida etqaza bilish, berilayotgan ma'lumotlarni ko'rgazmalilik darajasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Bu jarayonning asosida geografiyaning tili bo'lgan xaritalar, globuslar, turli xil chizmalar yotadi.

Bizga ma'lumki, geografiya yunoncha "geo"-yer, "grafo"-yozaman degan manoni bildiradi. Geografiya deb-o'zaro chambarchas bog'langan, yerning geografik qobig'ining tabiiy va ishlab chiqarish komplekslarini, ularning tarkibiy qismlarini o'rganadigan tabiiy (tabiiy geografiya) va iqtisodiy (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya), hamda maxsus geografik fanlar tizimiga aytiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlarini, aholini yashash tarzi va hayot faoliyati mezonlarini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida o'rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan uddaburonlik bilan foydalanishi lozim bo'ladi. Har bir mavzuga oid xaritalarni, globuslarni, turli xil chizmalarni internet vositalari orqali topib, videoproektorlar orqali namoyish etish asosida o'quvchilar ongiga geografiyani tub mazmun mohiyatini ochib bera olishimiz mumkin.

Zero geografiya ta'limining asosiy masqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Maktab geografiyasini qayta qurishning ilmiy-uslubiy kontseptsiyasi"da quyidagicha belgilab berilgan.

-dunyoni yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishni, bir so'z bilan aytganda, geografik madaniyatni tarbiyalash;

-tevarak-atrofni idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan mohirona foydalana bilishni o'rgatish;

-har qanday shaxs, tabiat va jamiyat bilan munosabatning eng oqil me'yorlariga amal qilishni, buni muhim sharti esa, ularga kompleks yondashish zarurligini anglatmoq;

-har bir fuqoroning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsatishiga zarur bo'lgan bilim va malaka berish bilan ro'yobga chiqishi va rivojlanishini ta'minlash.

Bugungi kunda tevarak-atrofni idrok qilishning muhim vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan mohirona foydalanishda eskicha yondashuvlardan qochishimiz lozim (xaritalarni o'qituvchi tomonidan ko'tarib dars jarayoniga olib kirib foydalangandan ko'ra), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dars jarayonining o'zida maxsus saytlardan foydalangan holda xaritalarni topib (mavzuli xaritalarni) foydalanish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi jarayonni yanada sermazmunroq olib borilishida samara yuqori bo'ladi.

An'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalanilib kelgan. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qolganlar. Hozirgi davr talabi o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan-ki, unda yangi interfaol metodlarni qo'llash katta samara bermoqda.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunga erishishni asosiy yo'lli AKTdan to'g'ri foydalanishdir.

Texnik vositalarni qo'llashni quyidagi afzalliklari mavjud:

-qiziqarliligi, o‘quvchilar birinchidan texnika vositalarini o‘ziga qiziqsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishga va unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarga qiziqishsa;

-voqealarni tez rivojlanishi va aniq kuzatishlari o‘quv materiallarini tez o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarni sodir bo‘lishi, tekislik va tog‘ rel’efining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tropik o‘rmonlarning sharoiti ishlab chiqarish jarayoni va h.k.

-turli vositalar orqali murakkab o‘quv materialini oson tushuntirish mumkin. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, imkoni va antitsiklonlarni shakllantirish, tornado, tsunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo‘lishi va ularning oqibatlari;

-o‘quvchilar qabul qilishi murakkab bo‘lgan geografik ob’ektlarni texnik vositalar orqali osongina bajarish mumkin. Masalan, temir yo‘l paromi, dengizdagi neft qazib oladigan moslamalar va h.k.

Geografiya darslarida oldindan epidoskop va kodoskoplardan foydalanishgan. Hozirgi kunda kompyuterlardan foydalanib axborotlarni olish imkoni hosil bo‘ldi.

Bunda asosiy muammo bo‘lib maktablarning to‘liq kompyuter bilan jihozlanmaganligi, èki undan foydalanishning bilmaslik bo‘lib turibdi. Shu sababli ham informatsion texnologiyalardan foydalanishda ayrim shart-sharoitlarini ko‘rsatib o‘tish lozim:

-geografiya o‘qituvchisi informatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart;

-umumta’lim maktablari o‘quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart;

- umumta’lim maktablarida kompyuterlar sinfi bo‘lishi shart.

Geografiya ta’limi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog‘langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan umumiy maqsadlarga muvofiq barkamol o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, geografiya ta’limi o‘quvchilarda Yer to‘g‘risidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o‘zaro bog‘liqligi, geografik ob’ekt, jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo‘lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalda tadbiq etishning so‘nggi bosqichida sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonining asosini tashkil etishi belgilab qo‘yilgan. Bu borada bajarilayotgan ishlarning negizida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda ta’lim tizimida milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari mavjud o‘quv rejalar, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma va metodik ishlanmalarni fanning so‘nggi yutuqlari, malakali pedagoglar tomonidan beriladigan tavsiyalar va ishlanmalar bilan o‘zgartirilib, boyitilib borishiga va ularni ko‘rgazmalilik, qisqa muddatda axborotlarni qabul qilishlik darajasiga qaratilgan.

O‘quvchilarning geografik bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan har bir dars jarayoni, unda qo‘llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quvchilarda ijtimoiy normalarga mos ongli intizomning vujudga kelishi, geografiya faniga motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishiga, bilim, ko‘nikma va malakalarni ongli o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi ko‘zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo‘lishi bilan qimmatlidir.

Xulosa qilib aytganda, audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida geografiyaga oid o‘quv materiallarini o‘quvchilarga etkazib berishda zamonaviy vosita hisoblanmish-axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli hayotimizda borgan sari ortib bormoqda. Haqiqatdan ham geografiya fanining turli sohalarida aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga suyanishimiz davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug‘aniev I. Geografiya darslarida ta’limning texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent.: O‘qituvchi, 1990.-135-bet.

2. Abdieva Z. A. Geografiya fanida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy.: Institut, 2003.-107-bet.

3. Internet ma’lumotlar.

GEOGRAFIK QOBIQNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xasanov Zuhiridin
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani
43-son maktab geografiya fani o‘qituvchisi
Tel:+998994890133

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari, uning tabiat va inson omili tasirida o‘zgarish jarayonlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: nobiogen, biogen, antropogen, geografik qobiq, tabiat, o‘zgarish.

Olimlar geografik qobiqning rivojlanishini uch bosqichga ajratishadi: nobiogen, biogen va antropogen. *Nobiogen bosqich* —Yer taraqqiyotining 4,6 mlrd yildan to 570 mln yilgacha o‘tgan davrini qamrab oladi. Bu bosqichda geografik qobiqning asosi tarkib topadi, ya’ni litosfera, atmosfera va gidrosfera shakllanadi. Yerda hayot 3,8—3,5 mlrd yil muqaddam paydo bo‘lgan bo‘lsada, ular o‘ta oddiy organizmlardan tashkil topganligi uchun geografik qobiqning rivojlanishiga sezilarli ta’sir etmagan. *Biogen bosqich*—570 mln yil muqaddam boshlangan. Bu davrda organizmlar taraqqiy etgan. Natijada, biosfera shakllangan va geografik qobiqning mukammal tizimga ega bo‘lishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. *Antropogen bosqich* inson paydo bo‘lgandan (2 mln yil avval) hozirgi kunga qadar o‘tgan davrni qamrab oladi. Ayni paytda geografik qobiqning rivojlanishiga insonning xo‘jalik faoliyati (texnika inqilobi, kosmik asr) sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bular tabiatni muhofaza qilish, ekologik, demografik muammolarni keltirib chiqardi. Shulardan biri o‘lkamizdagi Orolbo‘yi ekologik muammosidir.

Geografik qobiq rivojlanishi va tabiat komplekslarining tabaqalanishida ham o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Ular Yerning umumiy geografik qonuniyatlari deb ataladi. Bu qonuniyatlarni bilish insonga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va unga zarar yetkazmaslik, ekologik muvozanatni buzmaslik choralarini ko‘rish imkonini beradi. Bir butunlik, modda va energiyaning tabiatda aylanib yurishi, davriy yoki ritmik hodisalar, geografik zonallik va balandlik mintaqalanishi geografik qobiqning umumiy qonuniyatlari hisoblanadi. Bular geografik qobiqning rivojlanish qonuniyatlarini namoyon qiladi.

Geografik qobiqda hech bir tabiat komponenti alohida rivojlanmaydi. Ular doimo bir-birlari bilan bog‘langan va o‘zaro ta’sir etib turadi. Agar birorta tabiat komponenti o‘zgarishga uchrasa, boshqa tabiat komponenti ham albatta o‘zgaradi. Masalan, oddiygina biror daraxtzorning kesilishi oqibatida quyidagi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: yerosti suvlari sathi pasayadi, u yerda yashovchi hayvonot olami boshqa joyga ko‘chadi. Shuningdek, shamol ta’siri kuchayib, tuproq yemirilishiga olib keladi. Shu atrofdagi ob-havoda o‘zgarish ro‘y beradi. Kechalari salqinroq, kunduzi issiqroq bo‘ladi. Bundan tashqari, geografik qobiqning tarkibiy qismlari atmosfera, gidrosfera, biosfera va litosfera doimo bir-biri bilan aloqada, bir-biriga o‘tib turadi. Masalan, havo tarkibidagi suv bug‘lari gidrosfera, chang zarralari litosfera, qushlar, hasharotlar biosfera elementlaridir. Suvdagi organizmlar biosfera elementi bo‘lsa, undagi qum zarralari va qattiq jinslar, loyqa litosfera elementidir.

Geografik qobiqning to‘rtta tarkibiy qismida, ya’ni atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferalarda modda va energiya almashinuvi ikkita—gorizontal va vertikal yo‘nalishda kuzatiladi. Atmosfera va dunyo okeanidagi suvning harakatida va litosferadagi vulqonlar harakatida moddalarning ham gorizontal, ham vertikal almashinuvi bo‘ladi. Geografik qobiqdagi modda va energiyaning almashinuviga Yerning ichki energiyasi, Quyosh energiyasi hamda gravitatsiya kuchi ta’sir etadi. Geografik qobiqda modda va energiya to‘xtovsiz almashinib turadi. Bu jarayon murakkab bo‘lib, unda sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi.

Tabiatda vaqt o‘tishi bilan bir xil hodisalarning takrorlanib turishi *ritmiklik* deb ataladi. Ritmiklik ikkiga bo‘linadi: sutkalik va yillik (fasliy). Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi sutkalik, Quyosh atrofida to‘liq bir marta aylanishi yillik yoki fasliy ritmlarga sabab bo‘ladi. Sutkalik ritmiklikka kun bilan tun almashishi misol bo‘ladi. Natijada, sutka davomida harorat va namlik o‘zgarib turadi. Hayvonot olami hayotida ham ritmiklik aks etadi. Masalan, ayrim hayvonlar kunduzi faol bo‘lib, kechasi dam olsa, boshqalari, aksincha, tunda juda faol bo‘ladi. Tog‘lardagi qor va muzliklar kunduzi ko‘proq eriydi. Shuning uchun daryolar tushdan keyin sersuvroq bo‘ladi. Fasliy ritmiklikka Yerda yil fasllarining almashinishi misol bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumta’lim maktablari geografiya fani darsliklari.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 20-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(25-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000